

ANALYSIS OF REFORMS ON MUTUAL RESTRAINT AND BALANCE OF AUTHORITIES

HOKIMIYAT ORGANLARINING O‘ZARO TIYIB TURISH HAMDA MUVOZANAT BO‘YICHA ISLOHOTLAR TAHLILI

Husan RUSTAMOV *

* Guliston davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif davlat hokimiyati organlarining o‘zaro bir birini tiyib turish vakolatlari, ularning afzallik tomonlari, lyumpen va permanent islohotlarining farqlari va jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zaro tiyib turish, “to‘rtinchi” va “beshinchi” “hokimiyatlar”, “uzluksiz modernizatsiya”, “parchalanish islohotlari”, surunkali inqilob.

Abstract. In this article, the author reflects on the powers of state authorities to restrain each other, their advantages, differences and aspects of lumpen and permanent reforms.

Key words: mutual restraint, “fourth” and “fifth” “powers”, “continuous modernization”, “fragmentation reforms”, chronic revolution.

Kirish. Ingliz tarixchi olimi Djon Dalberg-Akton ta’kidlanganidek, “hokimiyat yo‘ldan ozdiradi, mutlaq hokimiyat esa mutlaq yo‘ldan ozdiradi”. “Cheksiz hokimiyatga ega bo‘lish, - deb yozadi D.Dalberg-Akton, - Afinaning dong taratgan demokratiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Zulm o‘tkazilganlar ozchilik, bundan ham yomoni ko‘pchilikni tashkil etishi nihoyatda noxush holatdir. Zero, ommada ozchilik deyarli qarshilik ko‘rsata olmaydigan yashirin kuch zahirasi mavjud bo‘ladi. Butun bir xalq irodasi ustidan shikoyat qilib bo‘lmaydi, negaki xalqdan yashirinish va qochib qutulishning iloji yo‘q... Xalqni go‘yoki o‘zidan himoya qiladigan va fikr bildirishda keskin o‘zgarishlardan saqlaydigan, qonunning mustahkam qudratini tasdiqlaydigan institutlar ham aynan shu sabablar tufayli xalqni boshqarishga ehtiyoz sezadi” (1).

Ayniqsa, hokimiyatning bo‘linish printsipi ko‘rib chiqilayotgan barcha mamlakatlarning konstitutsiyaviy hukumatida, turlicha bo‘lsa-da, o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimini yaratishga intilish bor ekani hisobga olinadigan bo‘lsa, yuqorida zikr etilgan holat yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Davlat hokimiyati va boshqaruvida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, ayniqsa faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davrida jadallashdi. Ushbu jarayon, jumladan, aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qildi. “XXI asrning dastlabki yillarida islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish dasturi” doirasida fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin ifodalashi, o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta’minlashi uchun zarur huquqiy maydon, imkoniyatlar va kafolatlar yaratish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish chora-tadbirlari kompleksi yaratildi (2).

Parlament tizimini isloh qilish, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining sifati va asosli bo‘lishini yaxshilash bilan bir qatorda davlat miqyosidagi manfaatlar bilan mintaqalarning manfaatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, davlat va jamiyat qurilishida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki ko‘lamini ancha kengaytirish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini ikki palatali parlamentga aylantirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlarning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida amalga oshirilganini isbotladi. Qabul qilinayotgan qonunlarning sifati jiddiy ravishda yaxshilandi, samarali o‘zaro tiyib turish va muvozanat tizimi yaratildi, davlat miqyosidagi va hududiy manfaatlarining mutanosibligi va uyg‘unligi ta’minlanmoqda. Mamlakatimizning qonun chiqaruvchi organi faoliyatida siyosiy partiyalar, mahalliy vakillik hokimiyati organlarining roli va ta’siri ancha oshdi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasiga asosan, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etildi. Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo‘llash amaliyotida yagona davlat siyosatini

o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarining berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini berdi, bu esa mazkur organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qildi (3).

Tadqiqot metodologiyasi. AQSh davlatining asoschilari o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining afzalliklarini, uni faqat mexanik va salbiy atamalarda ko'rib chiqish mumkin emasligini anglab yetgani ushbu davlatning shakllanishi va rivojlanishida, hech so'zsiz muhim rol o'ynadi.

AQShning to'rtinchi prezidenti Jeyms Medison o'zini o'zi samarali boshqarishni ta'minlash va iqtisodiy ozchilik huquqlarini himoya qilish uchun o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi zarur, deb hisoblagan. "Guruhbozlikning yashirin sabablari inson tabiatida bor va ular fuqarolik jamiyati hayotidagi holatlarga qarab, turli darajada faollashib borayotganini ko'rishimiz mumkin"(4), - deb yozadi J.Medison.

XVIII asrda yashab ijod qilgan amerikalik mashhur huquqshunoslardan biri, Nyu-Djersilik advokat, dastlabki patent qonunlari muallifi va mashhur bug' dviqatellari yaratuvchisi Djon Stivensning ta'kidlashicha, o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi tufayli "xalq bir tan, bir jon bo'lib, o'z erkinligini har doim himoya qilmasa ham bo'ladi; bu vazifa bilan uning vakillari va tizimga kiritilgan muvozanatlar shug'ullanadi, shuning uchun fuqarolardan faqat saylovlarda faol ishtirok etish hamda shaxsiy manfaatini zo'r berib himoya qilishi talab etiladi, xolos" (5).

1976-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati va urushdan keyingi davrning eng taniqli iqtisodchilaridan biri Milton Fridman so'nggi o'n yillikda dunyoning turli davlatlarida amalga oshirilgan liberal islohotlarning katta qismi uchun asos vazifasini o'tagan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va iqtisodiy hamda siyosiy erkinlikning o'zaro bog'liqligini cheklash g'oyalari targ'ib qilgani barchaga ma'lumdir. "Erkinlikni saqlab qolish o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi orqali... hokimiyatning bir joyda to'planishi, bo'linishi hamda tarqalib ketishini imkon qadar bartaraf etishni talab qiladi, - deb yozadi M.Fridman. – Iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni siyosiy hokimiyat nazoratidan chiqargan holda, bozorni majburlash manbaiga barham beradi. U iqtisodiy qudratni siyosiy hokimiyatni mustahkamlovchi emas, balki cheklovchi vositaga aylantiradi". "Agar iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyat bilan birlashtirilsa, uning bir joyda to'planishi deyarli muqarrar. Ikkinchi tomondan esa, agar iqtisodiy hokimiyat siyosiy hokimiyatni ushlab turgan qo'llarda bo'lmasa, u siyosiy hokimiyatni tiyib turadigan muvozanat bo'lib xizmat qilishi mumkin" (6).

O'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi ayniqsa tashqi siyosatda zarur. Amerikalik siyosatchi, pragmatizm va siyosiy realizm maktabining asoschisi hamda rahbari, AQShning tashqi siyosiy masalalar bo'yicha etakchi nazariyachisi Gans Morgentauning ijtimoiy falsafa uchun qator muhim masalalarni (millatchilik, urush va tinchlik, "jahon hukumati" muammosi) ko'tarib chiqqan. Insonning hokimiyat va ustunlik qilishga haddan tashqari intilishi ziddiyatlarning asosiy sababidir. "Xalqaro siyosat boshqa turdagi siyosatlar kabi hokimiyat uchun kurash hisoblanadi", siyosiy yetakchilar "hokimiyat sifatida ta'riflangan manfaat atamalari doirasida o'ylaydi va harakat qiladi". Uning fikricha, barcha plyuralistik jamiyatlarning mavjudlik prinsipi manfaatlar tengligi, o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimiga asoslangan (7).

Amerikalik mashhur diplomat Genri Kissindjer o'zaro tiyib turish va muvozanat nazariyasining turlicha izohlanishini ko'rib chiqib, ular nafaqat huquqiy, balki insonparvar xususiyatga ega ekanini qayd etgan: "Hokimiyatning bo'linishidan ko'zlangan maqsad boshqaruvning o'zaro mos tizimiga erishish emas, balki mustabidlikning oldini olish edi; boshqaruv tizimi tarmoqlarining har biri o'z manfaatlarini ko'zlasa-da, noilojlikdan saqlangan holda, umumiy farovonlikka erishishga xizmat qilishi kerak edi" (8).

G.Kissinjer kantian etikasiga asoslangan o'z falsafa tarixini yaratgan degan taxminlar bor. Odob-axloq davlatning mavjud bo'lish mohiyati va milliy manfatalarga bo'ysunishi lozim. G.Kissinjer milliy farovonlikka erishish, AQShning hokimiyati va xalqaro ahvoli umumbashriy qadriyatlardan oldinda, deb hisoblaydi (9).

Har qanday davlat o'zining hokimiyat vakolatlariga o'ta rashk bilan qaraydi va tashqaridan bosim o'tkazilishini yoqtirmaydi,(10) deb yozadi Avstriya iqtisodiy fikr maktabi vakillaridan biri, libertariantlik manifesti muallifi, Lyudvig fon Mizes an'analari izdoshlaridan biri, tarixchi va faylasuf Myurrey Rotbard. Hukumatni odamlar yaratadi, ularning adolatli hokimiyati boshqariladiganlar roziligiga asoslanadi. Sud davlat hokimiyatini tizimli ravishda markazlashtirishga ko'maklashadi. Demak, adolat va iqtisodiyot faniga muvofiq himoya vositalari va xavfsizlik xizmatlarining erkin bozorini tashkil etib, davlatni butkul yo'q qilishdan tashqari davlat hokimiyatini cheklashning boshqa hech qanday yo'li yo'q (11).

"Amerika tizimi o'zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmini ta'minlab turadi, chunki hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari bir-birini tiyib turadi, shuning uchun hokimiyatning faqat bitta qo'lda bo'lishiga xavotirlanmasa ham bo'ladi, degan fikr ham mavjud. Ammo, ushbu tizim ko'pincha chalg'ituvchi rol o'ynaydi. Chunki, hokimiyat institutlarining har biri o'z sohasida majburlash monopoliyasiga ega, ularning barchasi esa istalgan paytda bitta partiya tomonidan nazorat qilinishi mumkin bo'lgan yagona davlatning bir qismidir", - deb yozadi Myurrey Rotbard. "Amerika boshqaruv tizimidagi ko'klarga ko'tarilgan o'zaro tiyib turish va muvozanat hamda

hokimiyat tarmoqlariga bo'linish tizimi nihoyatda zaif, chunki, oxir-oqibatda mazkur tarmoqlar shu hukumatning uzviy qismi bo'lib, bir guruhdagi hukmdorlarga bo'ysunadi"(12).

Bugungi zamonning mashhur siyosatshunos-faylasuflaridan biri Lari Zidentopning fikricha (1936 yilda tug'ilgan), ma'naviy tenglik haqidagi xristian ta'limoti Yevropada fuqarolik jamiyatini yaratgan. Islom dini xristianlik singari universalizm tilida shakllantirilgan, ammo Islom dini faqat Allohga itoat etishda tenglikka e'tibor qaratsa, xristianlik Alloh oldida teng erkinlikni targ'ib qiladi.

L.Zidentop "hokimiyatning nisbiy ochiqligi singari deyarli hech narsani o'zgartirmaydigan" "rasmiyatchilikka asoslangan o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi"ni tanqid qilgan. Fransiya davlat modeli nisbatan oson eksport qilinishi mumkin, negaki u minimal cheklovlar bilan qarorlar qabul qilishning markazlashgan mexanizmini faqat rasmiylashtirishni ko'zda tutadi. Mazkur modelning mazmun-mohiyati – hokimiyatdir". L.Zidentopning fikricha, bu borada "hokimiyatni bo'lib-bo'lib joylashtiradigan, o'zaro tiyib turish va muvoznat tizimiga ega bo'lgan hamda muxtor Yevropa vakillik demokratiyasi bugungi kunda" muhim ahamiyatga molik masalaga aylanishi darkor"(13).

Tahlil va natijalar. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimi faqat rahbarlar emas, balki aniq bir shaxsning ham o'zini namoyon etishi hamda muhim institutsional o'zgarishlar tashabbuskori bo'lishi uchun erkin va haqiqiy imkoniyatlarga ega bo'lgan taqdirdagina ravnaq topadi. Albatta, bu bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va muayyan davlatdagi kuchli, ochiq hamda adolatli fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog'liq.

Mintaqadagi ayrim davlatlarda "beshinchi hokimiyat" deb atalayotgan (nazarimizda, bu diniy tashkilotlar, nisbatan mustaqil iqtisodiy tuzilmalar, norasmiy diniy jamiyatlar, ijtimoiy fikr, ekspertlar jamiyati, blog-jamiyat, va hatto, yashirin sektor va oqimlar) "to'rtinchi hokimiyat" (OAV) bilan bir xilda hokimiyatning uch tarmog'idan iborat tizimning teng huquqli a'zosi. Zamonaviy ekspertlar uchun "to'rtinchi" va "beshinchi" "hokimiyatlar" o'rtasidagi tuzilmalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar katta qiziqish uyg'otmoqda. Moldova, Belarus, Shimoliy Afrikadagi, arab mamlakatlaridagi voqealar nuqtai nazaridan, ayni shunday tuzilmalar haqidagi masala bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday sharoitda ham hokimiyatning uch tarmog'idan iborat tizim qator yangi sinovlarga dosh berishi kerak.

Hokimiyatning mustaqil uch tarmog'i tizimi istiqbollari bilan bog'liq boshqa masalalar ham bor. Masalan: biz ko'rib chiqayotgan mintaqada prokuror aynan qayerda – hokimiyatning uch tarmog'i tizimida, uning tepasida yoki uning doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsatadimi? (Masalan, Vengriyada hokimiyatning to'rtta mustaqil tarmog'i – uchta an'anaviy va bitta jamoat qoralovchisining ofisi (bosh prokuror) mavjud. Prokuratura – hech bo'lmaganda sobiq ittifoq hududida, ijro hokimiyati organlaridan mustaqildir; u davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari bilan munosabatlarda o'zaro tiyib turish va muvozanat tizimiga ega. O'z ta'sir doirasi va alohida vakolatlarga ega bo'lgan prokuratura qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bilan tenglashtirilgan hamda shu tariqa uning ushbu tizimda mustaqilligi ta'minlagan(14). Shu bilan birga, prokuratura huquqiy maqomining konstitutsiyaviy qonunlar darajasida hali ham aniqlanmagani ilmiy doiralarda prokuraturaning hokimiyatning bo'linishi tizimidagi roli va o'rni to'g'risida bahslarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida tilga olingan M.Fridman haqqoniy ravishda bunday deb yozgan: "Kapitalizm turg'unlikni buzib, ijtimoiy safarbarlikni joriy etadi"(15), (ya'ni, pozitsiyalarni yuqori yoki past darajada daromad olish, mavqega erishish va hokimiyatga intilishi yo'nalishiga o'zgartirish). Permanent modernizatsiya qobiliyati Yevropada paydo bo'lib rivojlanayotgan iqtisodiy o'zgarishning muhim belgisidir. Biroq, ijtimoiy safarbarlik va modernizatsiyani parmanent islohotlar bilan chalkashtirmaslik kerak.

Permanent islohotlar davomli ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va sud-huquq sohasidagi o'zgarishlarini ifoda etadi. Bu kabi islohotlar amalda ma'lum bir siyosiy tuzum doirasida yakunlanmaydi va ijobiy natijaga ega bo'lmaydi. Surunkali inqilob (L.Trotskiy, E.Mandel), avtoritar tuzumga nuqta qo'yadigan "parchalanish islohotlari" (X.Lints), "uzluksiz modernizatsiya" kabi tushunchalar Yevropada paydo bo'lgan va rivojlanayotgan iqtisodiy formatsiyaning muhim belgisiga aylanmoqda. Biroq, ijtimoiy safarbarlik va modernizatsiyani permanent islohotlar bilan adashtirmaslik lozim.

Permanent (uzoq davom etadigan, doimiy) islohotlar ijtimoiy tartibsizlik shakllaridan biridir. Bu kabi tartibsizlik, bizning fikrimizcha, islohotlarning dastlabki shartlari, mavridi, sur'ati, jadalligi va izchilligini inkor etish oqibatida yuzaga keladi.

T.Gobbs ijtimoiy tartibsizlik sabablari haqida bunday degan: "hukumatning o'zboshimchaligisiz fuqarolik urushi permanent holatga aylanishi darkor, bunda so'zlar hamda va'dalar emas, balki gaplar, qurol-aslahalar qonunlarga kuch beradi va ta'sir ko'rsatadi"(16).

Xulosa va takliflar. Davlat va jamiyat qurilishida hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarining mustaqilligini tizimli asosda, bosqichma-bosqich izchil kuchaytirish talab etilmoqda. O'zbekistonda islohotlar jarayonini davlat tomonidan huquqiy boshqarishning yaxlit tizimi yaratildi. Bu tizim hokimiyatning barcha sub'yekt va tarmoqlarini: prezidentlik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarini o'z ichiga olgan.

Davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat rahbari sifatidagi vakolatlari jamlangan prezidentlik hokimiyati yangi o'zbek davlatchiligining asosi, jamiyat barqarorligi hamda O'zbekistonning islohotlar yo'lidan muvaffaqiyatli harakat qilishining kafolatiga aylandi. Mamlakatimizda ijroiya hokimiyat organlarining ish yo'sini tubdan o'zgardi: ular rejalashtirish va taqsimlash huquqidan mahrum etilib, ko'proq iqtisodiy siyosatni, bozor islohotlarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanib, qonun doirasida faoliyat ko'rsatmoqda. Sudlarning ijro etuvchi hokimiyat va eng avvalo joylardagi hokimlar va prokuratura organlari bilan o'zaro munosabatlari asta-sekin o'zgardi. Shu bilan birga, ijroiya hokimiyat organlarining xususiyati ham o'zgardi: ular rejali taqsimlash funksiyasidan xalos bo'ldi hamda iqtisodiy siyosatni yo'lga solish rolini ko'proq ado eta boshlagan holda qonun doirasida harakat qila boshladi. Sudlarning ijroiya hokimiyat, eng avvalo, joylardagi hokimlar va prokuratura organlari bilan o'zaro munosabatlari asta-sekin o'zgarib boshladi.

ADABIYOTLAR

1. Актонов Дж. История свободы в античности // Полис. – 1993. – №3. – С.112
2. XXI asr dastlabki yillarida islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish dasturlari ro'yxati. //O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari Milliy bazasining veb-sayti – www.lex.uz.
3. И.А.Каримов. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь.// www.press-service.uz.
4. Мэдисон Дж. К народу штата Нью-Йорк. 22 ноября 1787 г. // Федералист: Политические эссе А. Гамильтона, Дж. Мэдисона и Дж. Джея. – М.: Издательская группа “Прогресс” – “Литера”, 1994. – С.74.
5. Бейлин Б. Идеологические истоки американской революции / Пер. с англ. - М.: Новое издательство, 2010. - С.234.
6. Фридман М. Капитализм и свобода / Пер. с англ. - М.: Новое издательство, 2006.- С.39. Оригинал: Friedman M. Capitalism and Freedom. – Chicago: The University of Chicago Press, 1962.
7. Morgenthau H. Politics Among Nations. The Struggle for Power and Peace. Second Edition. – New-York: Alfred A. Knopf, 1955. Қаранг: Babik M. Beyond Totalitarianism: (Re)Introducing Secularization Theory to Liberal Narratives of Progress // Politics, Religion & Ideology. – Vol.13. – Issue 3. –September 2012. –PP.289-309.
8. Киссинджер Г. Дипломатия. – М.: Ладомир, 1997. – С.25.
9. Russell G. Kissinger's philosophy of history and Kantian ethics // Diplomacy & Statecraft. – Vol.7. – Issue 1. – March 1996. – PP.97-124.
10. Ротбард М. Государство и деньги: Как государство завладело денежной системой общества. – Челябинск: Социум, 2004. –С.176.
11. Ротбард М. Этика свободы. – Москва: Социум, 2004. – С.20. Оригинал кн. см.: Rothbard M. The Ethics of Liberty. – New York: New York University Press, 1998.
12. Ротбард М. К новой свободе: Либертарианский манифест / Пер. с англ. - М.: Новое издательство, 2009. – С.265. Оригинал: Rothbard M. For a New Liberty. The Libertarian Manifesto. – Auburn: Ludwig von Mises Institute, 2006.
13. Зидентоп Л. Демократия в Европе. - М.: «Логос», 2001. - С.131; Оригинал кн.см.: Siedentop L. Democracy in Europe. – London: Penguin Press, 2000.
14. Шевченко В. Ю. Место прокуратуры в системе разделения властей // «Черные дыры» в российском законодательстве. – 2008. – № 1.
15. Фридман М. Капитализм и свобода / Пер. с англ. - М.: Новое издательство, 2006.- С.198.
16. Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского//Гоббс Т. Сочинения: В 2 т. – Т. 2. – М.: Мысль, 1991. – С.522.

Reviewer:

*F. G. Sharipov
DSc, Professor
Gulistan State University*

AUTHOR(S):

Author – Rustamov Husan, rustamov.husan@inbox.ru

Corresponding author – Rustamov Husan, rustamov.husan@inbox.ru